

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YO‘L-TRANSPORT INFRATUZILMASINI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISH**

Berdiyev J.Q

QarMII Katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Globalashuv sharoitda zamonaviy logistika xizmatlarini takomillashib borishi bilan bizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot yo‘limizga innovatsion faoliyatning bir qator tarkibiy qismlari kirib keldi. Bular innovatsiya, innovatsion mahsulot, innovatsion loyihalar, iqtisodiy mexanizmlari, bozorni xarakterlovchi harakat usullari va ularni boshqarish, texnologiyalar transferi, texnologik audit, innovatsion marketing, baholash siyosati, investitsiyaning taxliliy portfeli kabilar bo‘lib, ularsiz xalqaro iqtisodiy tizim prinsiplarini, strategiyasini, biznes siyosatini samarali o‘zlashtirish imkoniyati yo‘q, albatta.*

Kalit so‘zlar: *Globalashuv, logistika, xorijiy investitsiya, iqtisodiyot tarmoqlari, innovatsiya, tadbirkorlik subyekti, qurilishi va rekonstruksiya xususiy mulk, mulkdor.*

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizda transport xizmatlari va uning muhim infratuzilmasini tashkil etish hamda rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari hisobiga mamlakat transport tizimida avtomobil transporti yetakchi mavqega ega. Hozirgi kunda transportning ushbu turi zimmasiga umumiy tashilayotgan yuklarning 93 foizdan, yo‘lovchilarning 98 foizdan ko‘prog‘i, shuningdek, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10 foizi, ishlab chiqarish fondlarining 15 foizi va mehnatda band bo‘lganlarning 4 foizi to‘g‘ri keladi. Hududlar va tarmoqlararo kooperatsiyani, tadbirkorlik va savdo-sotiqni rivojlantirish, aholi harakatchanligi va ishchi kuchi migratsiyasini tezkor ta‘minlashning nechog‘lik samarali amalga oshirilishi avtomobil transporti xizmatlarini ko‘rsatish bozorining rivojlanishiga bog‘liqdir. Ammo bugungi kunda avtomobil transporti tizimida rentabellik darajasining pastligi, uning aholi salomatligi va ekologiyaga salbiy ta‘sirining talab darajasida emasligi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektorlarida transport xarajatlari ulushining yuqoriligi, hududlarning yo‘l tarmoqlari va infratuzilma obyektlari bilan notekis ta‘minlanishi aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining transport xizmatlariga bo‘lgan talablarini baho va sifat jihatdan qondira olmayapti.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo‘nalishida ham aynan, ... “...shuningdek, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borish, aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yuk va yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni qisqartirish, yo‘l infrastrukturasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish”

Ma‘lumki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda ham bugungi kunning yangi va samarali faoliyati, ya‘ni “innovatsion faoliyat”dan foydalanishni bozor iqtisodiyotini qonunlari talab qilyapti. Bu esa, avtomobil transport korxonalarining barcha transport-logistik

jarayonlarida yangicha yondashuv va yangi usullar yordamida amalga oshirishi, boshqaruv kadrlarini izlanuvchanlik, tashabbuskorlik va yangilikka intiluvchanlik kabi intellektual salohiyatidan foydalanishga undaydi.

Avtomobil transport korxonalarining innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini quyidagilar asosida ko‘rishimiz mumkin: innovatsion transport xizmatiga bo‘lgan talabni hosil qilish, investitsiya masalalarini tashkil qilish, tashkilish-huquqiy va kadrlar masalasi, innovatsion transport xizmatini yaratish va tijoratlashtirish masalalarini amalga oshirish, samarali innovatsion faoliyatni tashkil etish va shular jumlasidandir. Yuqorida sanab o‘tilgan ushbu masalalarni amalga oshirishda innovatsion logistikadan foydalanishni talab qiladi.

Globalashuv sharoitda zamonaviy logistika xizmatlarini takomillashib borishi bilan bizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot yo‘limizga innovatsion faoliyatning bir qator tarkibiy qismlari kirib keldi. Bular innovatsiya, innovatsion mahsulot, innovatsion loyihalar, iqtisodiy mexanizmlari, bozorni xarakterlovchi harakat usullari va ularni boshqarish, texnologiyalar transferi, texnologik audit, innovatsion marketing, baholash siyosati, investitsiyaning taxliliy portfeli kabilar bo‘lib, ularsiz xalqaro iqtisodiy tizim prinsiplarini, strategiyasini, biznes siyosatini samarali o‘zlashtirish imkoniyati yo‘q, albatta. O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishida transport tizimi yetakchi mavqega ega bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini yuksaltirishda istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham, milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atlarda o‘sishi bevosita transport-kommunikatsiya infratuzilmaviy tarmoqlari faoliyati samarador- ligiga bog‘liqdir.

Transport-yo‘l infratuzilmasini respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolda rivojlantirish dasturlari bilan bog‘liq holda ildam rivojlanishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 martdagi “2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1446-sonli qabul qilingan qarorda transportda yuk tashishni samarali tashkil etish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan, ko‘p maqsadli zamonaviy samarador transport-tranzit infratuzilmasini yaratish, har xil transport turlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatishda tutashlikni ta‘minlash, tranzit yuk tashish ko‘payishini, eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish va milliy mahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirishni ta‘minlaydigan yangi transport yo‘laklarini shakllantirish ustuvor yo‘nalishlar qilib belgilangandi.

Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib transport tizimidan samarali foydalanish, multimodal va intermodal tashuvlari-ning rivojlanishi, yangi infratuzilma obyektlarini barpo etishni, ya‘ni yuk yetkazib berish narxi hamda tezkorligiga ko‘ra ularning maqbulligi ta‘minlanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rakhimov A. N., Makhmatkulov G. K., Rakhimov A. M. Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т.

2. Berdiyev J. Q. Theoretical fundamentals of enterprise economic power //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1-6.

3. Ergashev T. K., Berdiyev J. Q. THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF USING MODERN MANAGEMENT METHODS IN THE HOTEL INDUSTRY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 849-859.